

UDK: 638.145.5

**О‘ЗБЕКISTONNING IQLIM SHAROITIDA ONA ASALARILARNI  
CHATISHTIRISHDA ASALARI ZOTLARIDAN FOYDALANISHNING SAMARALI  
YO‘LLARI.****Jamolov Rapiqjon Qo‘shmatovich***Farg‘ona davlat universiteti-o‘qituvchi***Azizov Rahmatillo Olimjon o‘g‘li***talaba*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O‘zbekiston iqlim sharoitida zotlarni chatishtirish uchun quyidagi sxemadan foydalanish samarali bo‘lishi uchun, mahalliy sharoitlarga moslashgan oilalarga, urug‘lanmagan Karpat yoki Karnika asalari zotining ona asalarisi yoki ularning yetilgan onadonlari olib kelinib, ona asalarini asalarizordagi hamma oilalarda yetishtirish lozim. Berilgan toza zotli ona asalari maxalliy erkak asalarilar bilan chatishtiriladi va undan chatishtirilgan asalarilarni birinchi avlodi chiqadi. Chatishtirilgan ona asalaridan chiqqan erkak asalarilar toza zotli bo‘lib, u o‘z genetik kelib chiqishida urug‘ini faqat ona tomondan olishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Karpat ona asalari, Karnika zoti, chatishtirish, genetik, zot, mahsuldorlik, geterozis, genetik, avlod, sxema, erkak asalari, ona asalari, mahalliy zot, sifatsiz.*

**ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПОРОД ПЧЕЛ В  
РАЗВЕДЕНИИ ПЧЕЛОМАТОК В КЛИМАТИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА.****Джамолов Рапикжон Кушматович***Ферганский государственный университет, преподаватель***Азизова Рахматилло Сын Олимджона***студент*

**Аннотация:** *В данной статье для эффективного использования следующей схемы разведения пород в климатических условиях Узбекистана необходимо завести неоплодотворенные карпатские или карнические пчелиные матки или их половозрелые матки в семьи, адаптированные к местным условиям, и разводить пчелиных маток. во всех семьях на пасеке. . Данную чистокровную пчелиную матку спаривают с местными пчелами-самцами, чтобы произвести первое поколение беспородных пчел. Пчелиные самцы от скрещивания пчелиных маток являются чистопородными, и говорят, что по своему генетическому происхождению они получают семена только со стороны матери.*

**Ключевые слова:** *Карпатская пчелиная матка, порода Карника, скрещивание, генетическая, порода, продуктивность, гетерозис, генетическая, генерация, схема, самец, пчелиная матка, местная порода, низкое качество.*

EFFECTIVE WAYS OF USING BEE BREEDS IN THE BREEDING OF QUEEN BEES  
IN THE CLIMATE CONDITIONS OF UZBEKISTAN.

**Jamolov Rapikjon Koshmatovich**

*Fergana State University, teacher*

**Azizov Rahmatillo Olimjon's son**

*student*

**Abstract:** *In this article, in order to effectively use the following scheme for breeding breeds in the climatic conditions of Uzbekistan, it is necessary to bring unfertilized Carpathian or Carnica bee queens or their mature queens to families adapted to local conditions, and breed queen bees in all families in the apiary. . A given purebred queen bee is mated with local male bees to produce the first generation of outbred bees. Male bees from cross-breeding queen bees are purebred, and it is said that in its genetic origin, it receives its seeds only from the mother's side.*

**Key words:** *Carpathian queen bee, Carnica breed, crossbreeding, genetic, breed, productivity, heterosis, genetic, generation, scheme, male bee, queen bee, local breed, poor quality.*

#### KIRISH

Tovar mahsulot ishlab–chiqarishga mo'ljallangan asalarizorlarda toza zotdan ko'ra chatishtirilgan asalarilardan foydalangan ma'qul. Agar zotlarni to'g'ri tanlagan bo'lsak, undan chatishtirilgan asalari oilasi o'zining mahsuldorligi va har xil sharoitga 20 – 30 % gacha bardosh berishi bilan ajralib turadi, bu geterozis paydo bo'lishi oqibatidadir. Geterozis birinchi avlodda ko'zga yaqqol tashlanadi, keyingi avlodlarga tez so'nib boradi.

O'zbekiston iqlim sharoitida zotlarni chatishtirish uchun quyidagi sxemadan foydalaniladi. Mahalliy sharoitlarga moslashgan oilalarga, urug'lanmagan Karpat, Karnika yoki kulrang Kavkaz tog' asalari zotining ona asalarisi yoki ularning yetilgan onadonlari olib kelinadi. Bu paytda asalarizorda ona asalarini hamma oilalarda yetishtirish lozim. Berilgan toza zotli ona asalari maxalliy erkak asalarilar bilan chatishtiriladi va undan chatishtirilgan asalarilarni birinchi avlodi chiqadi. Chatishtirilgan ona asalaridan chiqqan erkak asalarilar toza zotli bo'lib, u o'z genetik kelib chiqishida urug'ini faqat ona tomondan oladi. Bundan ko'rinib turibdiki, kelgusi yilda barcha erkak asalarilar ona asalari zotiga tegishli toza zot bo'ladi.

Keyingi yilda bahor oylarida sotib yuborilgan asalari paketlari o'rniga yoki ona asalarilar almashtirilayotgan vaqtda oilalarga mahalliy zotning yoki ona boshqa toza zotning urug'lanmagan ona asalarisi olib kelinadi. Ularni shu asalarizordagi toza zotli erkak asalarilar bilan chatishib, asalarilarni birinchi avlodi olinadi. Uchinchi yilida esa oilaga mahalliy zotning ona asalarisi olib kelinadi va yana chatishtirilgan asalarining birinchi avlodi olinadi.

Ishni shunday olib borish natijasida asalarizorda asalari oilalarida har doim chatishtirilgan asalarilarning birinchi avlodini ushlab turish mumkin bo'ladi.

Farg'ona viloyatida har 2–3 yilda Rossiyaning asalarichilik ilmiy tadqiqot institutidan va Ukrainaning viloyatlaridagi nasl yetishtiruvchi ho'jaliklardan urug'langan toza zotli ona asalarilarni olib turiladi. Ana shu toza zotli ona asalarilardan ilg'or asalarichilar urug'lanmagan ona asalari va yetilgan onadonlarni yetishtirib, boshqa asalarichilarga yetkazib, chatishtirilgan asalarilarni afzalliklarini, ularning sifatlarini keng targ'ibot qilmoqdalar.

Tadqiqot metodologiyasi: Asalari oilasini, ona va erkak asalarilarni saralash va sifatsizlarini yo'q qilib yuborish-asalarichilikda ham xuddi chorvachilikning boshqa sohalaridagidek kuchli asalari oilalarini tashkil etib, yangi eng yaxshi mahsuldor zotlarni ko'paytirishdan iboratdir. Shu bilan birga asalarizorda eng yomon sifatsiz, kasal, kam mahsulli, kam kuch asalari oilalarini yaroqsizga chiqarib turishni taqazo etadi.

Asalarichilikda sifatsiz ona asalari va oilalarini boshqa kuchli, sog'lom, zotdor asalari oilalariga qo'shib yuborish yo'li bilan almashtiriladi.

Asalarichilikda ona asalarilarni sifatsizga chiqarish va almashtirish quyidagilarga asoslanadi:

1). Asalari oilasidagi ona asalarining yoshiga qaramasdan kam mahsullarni almashtirish;

2). Asalari oilasidagi ikki yil va undan ortiq yashagan eski ona asalarilarni;

3). Asalari oilasida qishlovdan yomon chiqqan ona asalarilarni;

4). Kasallangan yoki xavfli asalari oilasidagi ona asalarilarni;

Yaroqsizga chiqarilayotgan asalari oilasi va ona asalarilarning ruyxati. Oilaning kelib – chiqishi, mahsuldorligi va qishlov natijalariga asosan o'tgan yilgi o'tkazilgan kuzgi taftish natijalariga qarab tuziladi va bu ro'yxat kelgusi yil bahor va yoz oylarida ona asalarining qoloqligi va kammahsulligi natijasida yana to'ldirilishi va o'zgartirilishi mumkin.

Asalarizorda zaxirada muvaqqat asalari shaxobchalari yoki nukleuslarga urug'langan ona asalari bo'lsa ana shunda nuqsonli va kammahsulli ona asalarilarni zudlik bilan almashtirish tavsiya qilinadi.

Shuning uchun ham asalarizorda doimo zaxirada urug'langan ona asalarilar bo'lishi lozim. Buning uchun, asalari oilasini o'stirish davrida rejadan ko'proq ravishda asalari shaxobchalarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Asalarichilikda asalari oilalarini ikki asosiy sharoitga ko'ra to'liq yaroqsizga chiqarish mumkin.

1). Kamkuch yoki kasallik belgilari nomoyon bo'lgan asalari oilalarini 2–3 tasini birlashtirish yo'li bilan, buning uchun 20–25 kun oldin asalari oilalaridagi ona asalarilar qafaschaga olinib, uyaning o'rtasiga romlar oralig'iga qo'yiladi. Birlashtirilgandan so'ng, eng yaxshi ona asalarini o'zaro tanlab oladi. Asalli romlar ortib qolgan taqdirda, ularning asali toza qilib asal tortgich asbobi bilan yig'ib olinadi.

2). Sog'lom ammo kammahsulli asalari oilalari esa asosiy asal yig'ini boshlanishi arafasida ularning ona asalarisi olinib boshqa o'rtacha kuchga ega bo'lgan, lekin ona asalarisi sermahsul bo'lgan asalari oilalari qo'shib yuboriladi.

Tadqiqot natijalari: Asalarini yaqin avlodi bilan juftlashishini oldini olish-har bir asalarichi o'z asalarizorida asalari oilasini mahsuldorligi, ularning xayotchanligini oshirishni tarafdori, chunki u yaxshi niyatlar bilan asalari oilasidan ko'plab asal va mum mahsuloti olishga qiziqadi.

Asalarizorda asalarini yaqin avlodi bilan juftlashishini oldini olish har 2-3 yilda asalarizorda boshqa asalarizordan begona zotga mansub bo'lgan yuqori mahsulli asalari oilalaridan, ona asalari va asalari paketilaridan keltirib turish maqsadga muvofiqdir. Ayrim joylarda bitta ho'jalik ichida ilg'or asalarichilar o'zaro 5-6 tagacha yaxshi sifatli mahsuldor asalari oilalaridan almashtirib turadilar. Bu usul bilan asalarizorda asalari nasli ancha yaxshilanadi.

Buning uchun yilning hamma vaqtlarida ham ona asalari oilasini almashtirish mumkin. Masalan: Farg'ona viloyatidagi yirik asalarichilik xo'jaliklari shu qoidaga qattiq amal qilib, har 4-5 yilda qo'shni Namangandagi Aziz-94 asalarichilik xo'jaligidan va Samarkand viloyatidagi «Chashma» asalarichilik xo'jaligi asalarichilaridan 8 - 10 tagacha asalari oilalarini almashtirib oladi. Natijada o'zining asalarizorida har yili toza sifatli mahsuldor duragay zotlarni tashkil etib, ko'plab asalarichilik mahsulotlari olishga erishmoqdalar. Masalan keyingi o'n yilliklarda uning asalarizorida asal mahsuloti ikki barobar, yangi asalari shaxobchalari tashkil etish uch barobar ortib bordi va har yili birinchilar qatorida asalari paketlari tayyorlab daromad qilmoqdalar.

Asalari oilalarini almashtirish davrida ana shu oilalar uchun barcha ma'lumotlar olinishi, o'tgan yildagi ya'ni ona asalarini kelib chiqishi, oila mahsuldorligi, qishlovga, kasalliklarga chidamliligi kabi ma'lumotlarni bilib olishi zarur. Ana shu oilalardan esa yangi ona asalari yetishtirib, ularni asalarizordagi erkak asalarilar bilan chatishtiradilar, natijada yangi ona asalari - qizi paydo bo'ladi, bunday oilalar o'zini mahsuldorligi, qishlovga va kasalliklarga chidamliligi bilan keskin farq qiladi.

Ona asalarini avlodiga e'tibor berib tanlash- Asalarichilikda ona asalarini avlodiga e'tibor berib, yakka alohida holda tanlash ishlari maxsus ixtisoslashgan asalarichilik ho'jaliklarida yoki yirik asalarichilik fermer xo'jaliklarida olib boriladi. Buning uchun xuddi oilaviy tanlash singari, asalari oilalarini barcha foydali ho'jalik belgilariga asosiy ko'rsatgich bo'lib hisoblangan, uning asal mahsuldorligiga qarab tanlanadi. Tanlab olingan ana shunday sermahsul, eng yuqori natijaga ega bo'lgan, o'zining xususiyatlari jihatdan boshqalardan o'zgan oilalarni rekordchi asalari oilalari deb aytiladi. Bunday asalari oilalari juda naslli bo'lib, ular o'zlarining avlodlariga eng yaxshi sifat belgilarini beradilar. Shuning uchun ham asalarichilikda ona asalarini avlodiga qarab yakka holda tanlashning asosiy vazifalari eng yuqori sermahsul asalari oilalarini yaratishdan iboratdir.

Xulosa: Ona asalarini avlodiga qarab alohida tanlash davrida va eng yaxshi xususiyatlarga, mahsuldorligiga va foydali ho'jalik belgilariga ega bo'lgan va shu xududga rayonlashtirilgan 4-5 ta asalari oilalar tanlab olinadi. Ana shu tanlangan

asalari oilalarning har qaysidan bir xil sharoitda 30–40 ta yangi ona asalari «Qizlari» yetishtiriladi. Bu yangi ona asalarilar maxsus ihota qilingan joylarda bir xil zotga mansub erkak asalarilar bilan chatishtiriladi. Urug'langan ona asalarilarni bir necha asalarizorga joylashtirilib, ular alohida ro'yxatga olinib sinov ishlari olib boriladi.

Bunday sinovdagi asalari oilalariga bir xillik mo'tadil sharoit, ya'ni oziqlantirish, oilani saqlash va qarovlar o'tkazish kabi sharoitlar yaratib beriladi, ularning mahsuldorligi va boshqa foydali ho'jalik belgilari sinchiklab tekshirib boriladi.

Ikkinchi yilning oxiriga borib, sinalayotgan oilalarning qishlovga chidamliligi va oilaning o'rtacha mahsuldorligi kabi ma'lumotlar olinadi. Sinalayotgan barcha asalari oilalarning foydali ho'jalik belgilari bir – biriga taqqoslab ko'rilganda, bular ichidan eng yaxshisi tanlab olinadi. Tanlangan asalari oilasi nasldor oila bo'lib, ular o'zlarinig foydali ho'jalik belgilarini o'zinig avlodiga beradigan bo'ladi. Ana shunday oilalarni kelajakda ko'pay'rish uchun saqlab qolinadi va foydalaniladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 oktyabrdagi "Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yana rivojlantirish chora-tadbirlari to'risida"gi PQ-3327-sonli qarori.

2. Gulov A.N., Borodachev A.V., Beryozin A.S. Vozrast trutney i kachestvo trutney. "Pchelovodstvo", 2015, №4, str. 24-26.

3. Jamolov, R. Q., Xatamova, D. M., Xolmatova, M. A. (2022). Asalarilar oilasining yashash tarzi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 666-671.

4. R.Jamolov., O.To'rayev, D.Xatamova. "Asalarichilik asoslari", Farg'ona "Classik", 2022.

5. Jamolov R., Boboyev B., O'ktamjonov S. Farg'ona vodiysida ona asalari yetishtirishning asalarichilikni rivojlantirishdagi va oila mahsuldorligini oshirishdagi ahamiyati *Science and innovation*.–2022.–Т. 1.–№. d7.–с. 43-49.

6. Jamolov, R. Q., Xatamova, D. M.,Xolmatova, M. A. (2022). Asalarichilik va uning ahamiyati. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 644-649.

7. R.Q.Jamolov, O.T.Avazxonova, M.D. Mirzobiddinova, A.N. Ergasheva. Asalarizorda asal tortish texnologiyasi. *Science and innovation 2 (Special Issue 6)*, 964-967 b.

8. R.Jamolov. O'zbekistonda asalari zotlarini tanlash va parvarishlanayotgan asalarilar irqlari tarkibi. (*Science and innovation 2 (Special Issue 8)*, 630-634 b)